SCIENCE AND INNOVATION
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5
UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

# KITOBXONLIK ISTIQBOLINING ASOSIY OMILLARI

**Hasanboyev Ibrohimjon Mirzanazarovich**
Namangan muhandislik-qurilish instituti oʻqituvchisi
**Abdusamatov Qobuljon foziljon oʻg'li**
Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi
**Rivojitdinov Ibrohim Isomitdin oʻg'li**
Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7069772***

***Annotatsiya.*** *Texnika va texnologiyalar asri, ya'ni XXI asri barchaga oʻz ta'sirini oʻtkazmay qolmadi. Buning ijobiy jihatlari sifatida: zamonamiz yoshlarining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli vositalar borasidagi bilim va koʻnikmalarining ortib borishini keltirish mumkin. Salbiy tarafdan qaralganda esa, asl ma'naviyatning unutilib borayotganida yaqqol oʻz aksini topgandek goʻyo. Barcha salbiy jihatlatni, aynan yoshlarning kitobdan uzoqlashib borayotgani bilan izohlash oʻrinlidir. Bunday vaziyat esa, jamiyatdan tezkor chora-tadbirlar koʻrishni taqazo etmoqda.*

***Kalit soʻzlar:*** *kitobxonlik targ'iboti; yosh kitobxon; kitobsevar yoshlarni izlab toppish; kitobsevar yoshlarni rag'batlantirish; beshta muhim tashabbus; Oʻzbekistondagi eng kitobsevar hudud; Oʻzbekistonda kitobga boʻlgan qiziqish; kitobga boʻlgan qiziqishning hududlardagi ifodasi; kitobga boʻlgan qiziqishning yillar boʻyicha koʻrsatgichlari; kitobxonlik targ'ibotining ustuvor omillari.*

# КЛЮЧЕВЫЕ ФАКТОРЫ БУДУЩЕГО БИБЛИОТЕКИ

***Аннотация.*** *21 век, 21 век оказал глубокое влияние на всех. С положительной стороны, знания и навыки современной молодежи в области информационных и коммуникационных технологий и цифровых медиа растут. С отрицательной стороны это, по-видимому, отражается в том факте, что изначальная духовность забывается. Все негативные моменты можно объяснить тем, что молодежь отдаляется от книг. Сложившаяся ситуация требует от общества принятия неотложных мер.*

***Ключевые слова:*** *продвижение чтения; юный читатель; найти любящих книги молодых людей; поощрение книголюбивой молодежи; пять важных инициатив; Самый книголюбивый регион Узбекистана; Интерес к книгам в Узбекистане; региональное проявление интереса к книге; годы интереса к книге; приоритеты продвижения чтения.*

# KEY FACTORS OF LIBRARY FUTURE

***Abstract.*** *The 21st century, the 21st century, has had a profound effect on everyone. On the positive side, the knowledge and skills of today's youth in information and communication technologies and digital media are growing. On the negative side, it seems to be reflected in the fact that the original spirituality is being forgotten. All the negative aspects can be explained by the fact that young people are moving away from books. This situation requires the society to take urgent measures.*

***Keywords:*** *reading promotion; young reader; finding book-loving young people; encourage book-loving youth; five important initiatives; The most book-loving region in Uzbekistan; Interest in books in Uzbekistan; regional expression of interest in the book; years of interest in the book; priorities of reading promotion.*

## KIRISH

Rivozhlanishdan dadil odimlab yulidan qanday vaziyatning taqdiri, yoshlarning dunyoqarashi va bilimi bilan chambachars bogliqdir [1]. Salohiyatli ёшлар мамлакатнинг ҳаракатлантирувчи кучи, millatning ertasi demakdir [2]. Yuqoridagi jumlalarning amaldagi ifodasi sifatida respublika miqyosida keng tarqalib ulgurgan “Yosh kitobxon” tanlovini keltrish mumkin [3]. Bundan tashqari Prezidentimiz tomonidan ilgari surigan beshta ustivor yo‘nalishning [4] biri ham, aynan yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ’ib etishga qaratilganini ham ta’kidlash o‘rinlidir [5].

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bugungi tadqiqotni olib boorish davomida, O‘zbekistonning kitobni targ’ib etish borasidagi siyosati [6], mamlakatda ilgari surib kelinayotgan beshta muhim tashabbus [7] hamda “Yosh kitobxon” tanlovlari haqida so‘z yuritilgan. Kitobga munosavat hududlar [8] va yillar kesimida [9] keltirilgan statistik ma’lumotlar jamlangan. O‘zbekistonning ilmiy salogiyati [10] va keng jamoatchilik fikrlari asosida tahlil etilgan [11],

## TADQIQOT NATIJALARI

Darxaqiyqat, birgina “Yosh kitobxon” tanlovining o‘tkazilishi, Respublikadagi barchani kitob mutoolasiga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi va kitobsevar yoshlarni chinakam yulduz darajasiga olib chiqdi deyish mumkin. Shuningdek, “Besh muhim tashabbus” doirasida kitob ziyosining targ’ib etilishi orqali kitob ahlining aniq qiziqishlari o‘rganilib, ko‘rsatgichlar olinib, uzluksiz tahlil etib borilmoqda. Buni, joriy yilgi “Yosh kitobxon” respublika tanlovida ishtirok etish uchun ariza topshirgan yoshlar misolida ko‘rish mumkin (1-rasm).

**1-rasm.**

**“Yosh kitobxon” tanlovida ishtirok etish bo’yicha hududlarning ko’rsatgichlari**




Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarini tahlil qilgan holda, mamlakatimizning barcha hududlarida “Yosh kitobxon” respublika tanlovi bo‘lgan qiziqishni ko‘rish mumkin. Hududlar kesimida olib qaralganda esa, eng yuqori ko‘rsatgichni Samarqand viloyati (383 nafar)

yoshlariga tegishli. Keying qatorlarni esa, Qashqadaryo (363 nafar) va Farg'onalik (359 nafar) yoshlar band qilganini ko'rish mumkin.

Bu boradagi ko'rsatgichlarni, bacha hududlarda ham "ijobiy" deb bo'lmaydi. Masalan: eng past ko'rsatgichlar esa: Qoraqalpog'iston Respublikasi (162 nafar), jizzax (196 nafar) va Sirdaryo viloyati (98 nafar) qayd etganini keltirish o'rinlidir. Mazkur salbiy holatlarni, hududlarda kitobxonlikning keng targ'ib etilmayotgani bilan baxolash mumkin.

**2-rasm.**
**"Yosh kitobxon" tanloviga bo'lgan qiziqishning yillar kesimida o'zgarishi (ishtirokchilar soni bo'yicha).**




2022-yilda mazkur tanlovda qatnashish istagini bildirgan yoshlarning umumiy soni 3611 nafarni tashkil etib, ishtirokchi yoshlar soni o'tgan yilgi ko'rsatgichlardan qariyb 16% ga ortganini ko'rsatmoqda (2-rasm).

- *Bugun, O'zbekistonda kitobga bo'lgan munosabatning keskin o'zgarishi hamda yuqoridagi kabi ijobiy ko'rsatgichlarning qayd etilishidagi eng muhim omili nima?*

Shu savolga to'laqonli javob toppish maqsadida bir guruh ziyolilar va jamoat faollari ishtirokida kichik tadqiqotlar o'tlazishga muvaffaq bo'ldik (3-rasm). So'rovnoma tarzidagi tadqiqotlarimizning yakuniy xulosalariga ko'ra: 71% ishtirokchilar O'zbekistonda kitobga bo'lgan munosabatning keskin o'zgarishidagi eng muhim omili sifatida – kitobxonlikning munosib rag'batlantirib kelinayotganda deb qaraydilar. Qatnashchilarning 17% qismi, kitob ahliga yaratilayotgan imkoniyatni, qolgan 12% ishtirokchilar esa - faqatgina bilimni ustuvor hisoblashlari ma'lum bo'ldi.

**3-rasm.**
**Kitobxonlik targ'ibotining ustuvor omillari.**




## XULOSA

Umumiy xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, bilim, imkoniyat va rag'batni, bir birini taqazo etadi va ulardan qaysidir birini ustun qo'yish noo'rindir. Ze'ro: bilim va rag'bat bo'lsa-yu, imkoniyat bo'lmasa jamiyat tubanikka yuz tutadi. Bilim va imkoniyat bor joyda, munosib rag'batlantirish bo'lmasa – ishtiyoq so'nadi. Yetarlicha imkoniyat va munosib rag'bat bo'la turib insonlarda bilim bo'lmasa, adolatsizlik va zulmning avj olishi muqarrardir.

O'zbekistonda kitobga e'tibor va kitobxonlarga yaratilayotgan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, yuqoridagi barcha omillarning bir nuqtada jamlanganini ko'rish qiyin emas. Kelgusida kitobsevar yoshlar va kitobsevar hududlar soning ortishini tahmin qilish mumkin.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2995 Қарори. https://lex.uz/docs/3211987
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 2 мартидаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги 5953 Фармони //Халқ сўзи, 2020 йил 3 март.
3. Ўзбекистон Президентининг 2020 йил 16 апрелдаги “Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4680 Қарори. https://lex.uz/docs/4791086
4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2016.-5 бет.
5. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Асарлар I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-Б. 470-471.
6. Жабборов Н. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти: кеча, бугун ва истиқбол //Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Ёш олимлар кенгашининг Ёш олимлар ахборотномаси, №2 (6).-2019.-Б. 14-15.
7. https://nrm.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 24 январь куни Олий Мажлисга мурожаатномаси (2020 йил 24 январь).
8. https://president.uz/uz/lists/view/3864. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йилнинг 30 сентябрида Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси. http://uzbekistonmet.uz/ uz/lists/view/643.